

O'QUVCHILARNI KASB TANLASH JARAYONIDA ZAMONAVIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Begmatova Yulduz Nuraliyevna
Surxondaryo viloyati Denov tumani
43-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Kasb – hunarli bo'lish inson uchun zarur bir ehtiyoj ekanligini buyuk avlodlarimiz o'z asarlarida aytib o'tganlar. Deylik Kaykovus o'zining “Qobusnoma” asarida shunday yozadi “Bas, agar aqling bo'lsa xunar o'rgang'il, nedinkim hunarsiz aql – boshsiz tan, suratsiz badandekdir... Ey farzand, ogoh bo'liki, xunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf' etkurmas.” Hozirda o'sib kelayotgan yoshlar o'z qiziqishlaridan kelib chiqib minglab kasblar ichidan o'zi uchun qiziqarli bo'lgan kasbni tanlab olishlari va o'z hayotlarini mazmunli, yaxshi o'tkazishlari uchun intiladilar.

Kalit so'zlar: Kasb, kasb psixologiyasi, kasbiy faoliyat, bilish jarayonlari, nutq, xotira, kasbiy mahorat, kasb etikasi, qiziqish, qobiliyat, maqsad, psixologik yordam, ruhiy jarayonlar

KIRISH

Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning faqarolarining aqliy jihatdan yetukligi va axloqiy salohiyatining yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Asrlar davomida saqlanib kelinayotgan xalqning boy intellektual merosi hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida madaniyat, ma'rifat, fan-texnologiya va iqtisodiyotning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir.

Shu jumladan ta'lim, ilm-fan sohasida ham bir qator o'zgarishtirishlar kiritilmoqda. Bu o'zgartirishlar bevosita kelajak avlodning barkamol shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchi yoshlarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, ko'nikma va malakalar asosida shakllantirish, ta'lim oluvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarning zaruriy hajmini berish, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Kasblar bo'yicha birlamchi bilim, ko'nikmalarni shakllantirish uchun professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshirilmoqda

Bu borada respublikamizda “O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi” tashkil etilgan. Bu markaz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ko'zda tutilgan jamiyat ehtiyoji va mehnat bozori talablari asosida o'quvchilarning o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va sog'liqlariga mos bo'lgan kasb-

hunarlarini tanlashlariga ko'maklashadi. Ushbu markaz o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibga amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining kasb-hunarga yo'naltirish respublika tizimini tashkiliy, ilmiy-metodik, axborot- ma'lumot va dasturiy ta'minlash maqsadida tashkil etilgan. Kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlari holatini nazorat qilish, uni takomillashtirish choralarini ko'rish, tegishli dasturlar, me'yoriy hujjatlar va tavsiyalar ishlab chiqish; mamlakatimizdagi va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini umumlashtirish, ommalashtirish va hayotga tadbiq etish; barcha bosqichdagi o'quvchilarni kasbhunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik hududiy tashxis markazlari va ta'lim muassalaridagi kasb-hunarga yo'naltirish vazifasi yuklatilgan mutaxassislarning malakasini oshirish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqish; umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining hayotiy va kasbiy o'zligini anglash borasidagi ustuvor dasturlar va muammolar bilan ishlash respublika tashxis markazining eng muhim vazifalaridan



hisoblanadi

O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunda ham o'quvchi yoshlarning kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarda o'zlari tanlagan kasb va mutaxassislik asosida ta'lim olishi belgilab qo'yilgan. So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlarga, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat e'tiborni yanada oshirish, o'quvchilarning kasbiy mahoratlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim, tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'grisida" gi farmoniga asosan 2021-2022

o'quv yilidan boshlab umumta'lim muassasalari bitiruvchilari o'z iqtidori va qiziqishlariga mos kasbni tanlab olishi, jamiyatda munosib o'z o'rnini topishi, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishi uchun “Kasbga yo'naltirish tizimi” joriy etilgan.

Mazkur farmonda 7-8-9 sinfdan boshlab o'quvchilar o'rtasida interaktiv so'rovnomalar o'tkazish, kasb- hunarga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, o'quvchilar bilan birgalikda har oyda bir marta “kasblar olamiga sayohat” mavzusida maxsus kurslar olib borilishi to'g'risida aytilgan. Interaktiv so'rovnomalar orqali o'quvchilarning qiziqish sohalari o'rganilib, tahlil qilinadi va shu asnoda kasbga yo'naltirib boriladi. Kasb tanlash – inson hayotidagi eng muhim qadamdir. Interaktiv so'rovnomalar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar kasb tushunchasi va kasblar haqidagi savollarga javob topadilar. Kelajakda egallamoqchi bo'lgan kasblari haqida tasavvurga ega bo'la boshlaydilar. Shuningdek, “kasb” so'zining ma'nosi insonlarning hunari, faoliyat turi va hayot kechirishi uchun manba bo'lib xizmat qiladigan mashg'ulot demakdir. Va bu mashg'ulot sevimli bo'lsa, inson albatta hayotidan zavq oladi.

Kasb- bu ongli ravishda tanlangan faoliyat yo'lidir. O'quvchilarning tanlangan kasblari ularning qobiliyatlari, qiziqishlari, xarakter xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. Chunki tanlangan kasb faqat ularning o'zlarigagina emas, balki jamiyatga ham foyda keltirishi kerak. Ye.A.Klimov o'z ishlarida bu borada bir necha ta'riflarni ilgari suradi. Ta'rif quyidagicha “Kasb jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib, bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi”,- bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktab muassasalarida faoliyat olib borayotgan amaliyotchi psixologlar maktab o'quvchilari bilan kasb tanlash, kasbga yo'naltirish borasida turli xil so'rovnomalar, masalan, “maktabdagi kasblar”, “mening kelajagim” nomli so'rovnomalar, “kasb tiplarini aniqlash” savolnomalari, “kasblar zanjiri” kabi amaliy mashg'ulotlar olib borilmoqda. Shular bilan bir qatorda, maktab o'quvchilariga tanlangan kasbga shaxsning moyilligi, layoqati va zarur bo'lgan sifatlariga oid ma'lumotlar ham berib boriladi.

Yuqori sinf o'quvchilari bilan ham kasbga yo'naltirishga doir bir qancha mashg'ulotlar ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanadi. “o'quvchilarqiziqishlarini aniqlash” so'rovnoms, “kasblar va insonning kasbga yaroqliligi”, “maktab o'quvchisining kasbiy o'zligini anglash”, “kasbga yo'naltirish alifbosi” kabi mashg'ulotlar maktab psixologlar tomonidan o'tkaziladi, qiziqish qobiliyatlari aniqlanib, o'quvchilarning har birlari bilan individual shug'ullanib kerakli tavsiyalar berib borishadi. “Mening kelajakdagi kasbim” mavzusida seminar-trening mashg'ulotlari olib boriladi. Seminar davomida o'quvchilarni kelajakda egallamoqchi bo'lgan kasblarga yo'naltirib boriladi. O'quvchilarning kasblarga doir fikrlari tinglaniladi. Bundan tashqari o'quvchilarning kasbiy moyilligi bo'yicha o'tkazilgan pedagogic-psixologik tashxislar natijalari asosida kelgusida aniq kasblar bo'yicha kasb maktablarida

ta'lim olishi mumkin bo'lgan o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlari olib borilmoqda. O'smirlarni o'rganilayotgan kasbga qiziqishini shakllantirish jarayonida ularning e'tiborligini ifodalaydigan materiallarni tavsiflaydigan holatlar kuzatiladi. Shuningdek kasbga qiziqishini shakllantirishni ta'minlaydigan intellektual komponentlarning tarkibiy qismlarini aniqlashda quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

- Analiz va sintez;
- Diqqat va kuzatuvchanlik;
- Ajratish va umumlashtirish;
- Klassifikatsiyalash va isbotlash

Hozirgi paytda, Harrison Assessments usuli bo'yicha kasbga yo'naltirish O'zbekistondagi birinchi va noyob kasbga yo'naltirish usuli bo'lib, u sizga farzandingiz uchun qaysi mutaxassislikni tanlashni va qaysi kuchli tomonlarini rivojlantirishni aniqlashga yordam beradi.

Bu test usuliorqali biz:

- O'zimizni kuchli tomonlarimizni tahlil qila olamiz;
- Biz uchun muvaffaqiyatli bo'ladigan kasblar ro'yxatini bila olamiz;
- Yetakchilik fazilatlarimizni tahlil qila olamiz;
- Hayotimizda oldindan aniq reja tuza olamiz;
- Umrimizni behuda sarflanadigan vaqti va mablag'laridan asrab qolamiz;
- Psixolog va mutaxassislar bilan individual suhbat va maslahat olamiz.

Kasb - kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'uloti turi, muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasb inson uchun zarur bo'lgan, bosh vaqtida shug'ullanadigan, Vatani uchun xizmat qiladigan ishdir. Kasblarni hamma ham egallay olmaydi. Kasb o'rganish uchun eng avvalo o'qish va bilim olish zarurdir. Bilim olish igna bilan quduq qazishdek gap. Agar insonda bilim bo'lmasa u o'zi istagan biror bir kasbni egallay olmaydi. Hayotda kasblar shunchalik ko'pki, ular orasidan bittasini tanlash shunchalik qiyin. Shunga qaramasdan inson o'zi yoqtirgan, kasbli kishilarni ko'rib shu kasbni yoqtirib qolib shu kasbni egallashga harakat qiladi. Kasb qanchalik muvaffaqiyatli tanlansa, inson o'zini shunchalik baxtli his qiladi. Ammo har qanday muttaxassislikni egallash uchun yaxshi o'qish va tanlanga kasbga ko'proq qiziqish kerak.

Shunday qilib, insonning kasbiy shakllanish muammolarini o'rganish ham fundamental ham amaliy tadqiqotlarning dolzarb vazifalaridan sanaladi. O'z-o'zini anglashning chegaralanganligi bu-erkinlikni chegaralanishi hisoblanadi. Agarda mutaxassis o'zini chuqur bilsa, boshqalarni ham chuqur tushuna oladi. Shaxsiy ma'suliyatlilikni qabul qilish ham muhim sifatlardan hisoblanadi. Insoniyat paydo bo'libdiki u har doim o'zini boqishga, ehtiyojlarini qondirishga harakat qilgan va hozirda ham shu yo'ldan bormoqda. Inson o'z ehtiyojlarini eng avvalo oziq – ovqat, boshpana, kiyim – kechaklarga bo'lgan

ehtiyojlarni qondirishdan boshlagan. Keyinchalik yangi sivilizatsiyalar paydo bo'lgach, ya'ni insoniyat madaniyatlashib borgan sari o'z ehtiyojlariga kerak bo'lgan maxsulotlarni ishlab chiqara boshlagan. Bular eng avvalo shu sohadagi kasb egalarini paydo bo'lishiga va jamiyatni shu maxsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga intilishlarni paydo qilgan. Jamiyat rivojlana borgan sari yangi kasblar paydo bo'lgan va rivojlanib borgan. Insonlar esa yaxshi yashashga intilganlar. Buning uchun kasb tanlaganlar, tajriba oshirganlar va bilimlarni to'plaganlar. Kasb – inson ish faoliyatining ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunardir. Kasbga umumiy yoki maxsus ma'lumot hamda amaliy tajriba yo'li bilan erishiladi. Kasb ichida mehnat faoliyatining eng tor xarakteri bilan ajralib turuvchi ixtisoslari bor. Ba'zi kasblarda bir qancha ixtisoslar masalan: chilangar kasbida – remontchi chilangar, asbobsoz chilangar, yig'uvchi chilangar kabi yo'nalishlar mavjud. Dunyoda 60 ming (qiyoslash uchun Rossiyada 20 ming) O'zbekistonda 6 mingdan ziyod kasblar mavjud.^[1] SHuni aytish joyizki jamiyat rivojlangan sari kasblar ham ko'payib boradi. SHu bilan birga kasb bu jamiyatdagi qabul qilingan huquqiy – normativ qonunlarga amal qilishi zarur bo'ladi.

Kasb – hunarli bo'lish inson uchun zarur bir ehtiyoj ekanligini buyuk avlodlarimiz o'z asarlarida aytib o'tganlar. Deylik Kaykovus o'zining “Qobusnoma” asarida shunday yozadi “Bas, agar aqling bo'lsa xunar o'rgang'il, nedinkim hunarsiz aql – boshsiz tan, suratsiz badandekdir... Ey farzand, ogoh bo'lki, xunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf' etkurmas.” Hozirda o'sib kelayotgan yoshlar o'z qiziqishlaridan kelib chiqib minglab kasblar ichidan o'zi uchun qiziqarli bo'lgan kasbni tanlab olishlari va o'z hayotlarini mazmunli, yaxshi o'tkazishlari uchun intiladilar. Ularga bu kasblarni tanlashlarida kasb psixologiyasining o'rni va ahamiyati juda katta. “Men kelajakda kim bo'laman?”, “Yaxshi yashashim uchun qaysi kasbni tanlashim kerak?”, “Mendagi iqtidor shunga etadimi?”, “Kelajagimdan qoniqamanmikan?” degan ko'lab savollar yoshlarni o'ylantiradi. Bu savollarga javob olish uchun ular ko'plab kuzatadilar, hayotdan ma'lum bir malakalar olishga intiladilar.

XULOSA

Yoshlarning kasb tanlashlari maktabdan boshlanadi. Bunga ularni tayyorlab borish zarur bo'ladi. Buni psixolog olim Anvar Jalolov o'zining “Kasb qanday tanlanadi” kitobida shunday ko'rsatib beradi. Xilma – xil va qiziqarli kasblarni tanlashning asosiy maqsadi yaxshi yashash va yaxshi kasbni tanlash hisoblanadi. O'zi uchun qiziqarli bo'lgan kasb insonni har doim o'z ustida ishlashga, uni yaxshiroq bilishga olib keladi. Insonda kasb tanlash jarayonini yana shu muallif quyidagicha belgilaydi. Insonda ma'lum kasbga, uni egallashga xavas, mayil, orzu, ishtiyoq, xafsala bo'lmasa u hech qanday kasbni egallay olmaydi. Insondagi shu jarayonlar odamning o'z kelajagini to'g'ri anglashga, tushunishga olib keladi. Unda istak, xohish paydo bo'ladi. Bular bolada ma'lum bir maqsadni shakllanishiga va bu yo'lda iroda kuchini sarf qilishga olib keladi. Irodali inson o'z maqsadi sari intiladi va orzu havaslariga erishadi. Bunda bolaBunda bolada paydo

bo'luvchi xavas atrofdagi insonlarni kuzatish orqali, ularga aytilgan maqtov so'zlarini tinglash va uning mahoratiga qoyil qolish, odamlarni uning mahoratini maqtashlari, bu insonni bilimdonligi, qo'lidan ko'plab ishlar kelishini kuzatishi unda shu insonga o'xshashga xavasni uyg'otadi. Unda orzu, armon, tilak, ishtiyoq va xafsala paydo bo'ladi. Bu jarayonlar bolada uyg'onayotgan ehtiyojlar va manfaatlar bilan bog'liq bo'lib uni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishning xissiyotlari, irodalari bilan bog'liq jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Jalalov kasb qanday tanlanadi. 2010 Y. 62 b.
- 2.I.A.Karimov Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.1998.17b
- 3.Kaykaus. "Qobusnoma" T., 1994 y. 26 b.
4. Sobirovna, U. M. (2022). INTERACTIVE LEARNING METHODS USED IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY COURSES. Open Access Repository, 9(11), 106-113